



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUIJATLARIDA HUQUQIY ATAMALARNI QO'LLASHNING BA'ZI MUAMMOLARI

**N.B.Abdurashitova**

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o'qituvchisi  
nigora1629@gmail.com*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179411>

***Annotasiya:** Maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lgan huquqiy atamalarni to'g'ri qo'llash muammosi muallif tomonidan tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda qonun tiliga qo'yilayotgan talablarni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan masalalar yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** qonun tili, huquqiy hujjatlar, qonun chiqaruvchi, huquqiy atamalar, sinonimiya va omonimiya, huquqiy atamalar semantikasi.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayoni faollashgan, shuningdek ijtimoiy hayotning turli sohalarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha yuzlab qonun, huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinayotgan bugungi kunda qonun tili, texnikasi, huquqiy atamalarni qo'llash, ularni tartibga solish muammosi jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohada qator huquqshunos va tilshunos olimlar bosh qotirayotganiga qaramay, u hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Binobarin, qonunchilik texnikasi sohasini umuman o'rganilmagan soha deb atab bo'lmaydi, aksincha unda o'z vaqtida rossiyalik olimlar N.Vlasenko, F.Fayzulina, mamlakatimiz tilshunoslari N.Qosimova, Sh.Ko'chimov va boshqalar huquqiy atamalar va ularni qo'llash mavzusida bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirganlar hamda qonunchilik texnikasi, tili va huquqiy atamashunoslik bo'yicha amaliy takliflar berganlar. [1;2]

Ma'lumki, qonunlarning eng asosiy vazifasi – jamiyatda tartib, intizom va barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Bu borada vatandoshimiz taniqli huquqshunos olim, akademik Sh.Z.O'razaev aytganidek: "Qonun xuddi alifbo, xuddi maktab darsligi kabi o'ta sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Hozir ko'pgina qonunlar uzundan-uzoq tuzilganligi, tushunish va qo'llash qiyinligi bois samarali amal qilmayapti. [1,35.]

Shunday bo'lishiga qaramay, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati haqidagi muammo hamon tez-tez ko'tarilmoqda. Zero, mazkur sohada jiddiy xato va kamchiliklar mavjudki, ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

– qonun matnlarini bayon qilishda shakl va mazmun orasidagi unifikasiyaning yo'qligi;



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

– normativ-hujjatlarda qo'llaniladigan atamalarning amaldagi qonunlar atamalari bilan nomuvofiqligi (ba'zida qonunda bir, normativ hujjatda esa boshqa xil atama ishlatiladi);

- huquqiy atamalarning umum qabul qilinmaganligi;
- turli huquqiy munosabatlarni bir atamaning o'zi bilan ifodalash;
- qonun texnikasiga rioya qilmaslik va hokazo.

Xususan, bugungi kunda huquqiy atamalarimizni qiynayotgan muammolardan eng asosiysi bu huquqiy atamashunoslikda sinonimiya va omonimiya hodisalariga yo'l qo'yilayotganligidir.[3,60] Ma'lumki, bir atamani muayyan sohaning o'zida turli ish-harakat, voqea-hodisa, munosabatlarni aks ettirish uchun ishlatish, shubhasiz, mazkur atamani turlicha tushunish, asl ma'nosi qolib boshqa ma'noda qo'llash muammosini yuzaga keltiradi. Zero, qonun shu qadar nozik sohaki, "ba'zida ijozat etilgan va taqiqlangan xatti-harakatlar orasidagi farq "yalt" etib ko'zga tashlanmaganligi uchun ruxsat taqiqqa aylanib, u huquqbuzarlik yoki jinoyatni yuzaga keltirishi mumkin. Qonunda bu chegaralar aniq belgilanishi shart, ana shundagina u qo'llashga yaroqli bo'ladi". Huquqiy hujjatlar matni mazmuniga javob bermaydigan sinonim va omonimlarning ishlatilishi ma'no buzilishiga olib kelishi, oqibatda huquqiy normani qo'llash samaradorligi pasayishi, bu esa uning muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat asosiy vazifasini bajara olmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda qonun matnlarida ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanishi ham maqsadga muvofiq emas. Masalan, buni Rossiya huquqshunoslik amaliyotidan olingan qiziqardi misolda ko'rish mumkin. Ma'lumki, ruscha pokazalos' so'zi bir nechta qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lib, uning semantik qatoriga pokazalos', pomereshilos' kabi ma'nolar ham kiradi. Chunonchi, jinoiy ish bo'yicha hukm chiqarish jarayonida Ivanovo shahrilik advokat mazkur so'zlardagi ma'no o'yinidan foydalanib, o'zi himoya qilayotgan shaxs aybini qayta kvalifikasiya qilish hamda belgilangan jazo turini yengilrog'i bilan almashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Darhaqiqat, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni hisobga olgan holda huquqiy atamalarni qo'llash sohasi quyidagi talablarga javob berishi kerak deb o'ylaymiz:

- qonun hujjatlarida qo'llanilayotgan huquqiy shakllar: qoidalar, iboralar va huquqiy atamalar og'zaki va yozma nutqda mustahkamlangan va aniq bo'lishi;
- muayyan huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qilishi;
- amaliyotda aprobasiya qilingan va umumiste'molda bo'lishi;
- qonun tilida unifikasiya qinishi va umum qabul qilingan bo'lishi lozim.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan ayni paytda yuzaga kelgan yangi huquqiy munosabatlar tufayli paydo bo'lgan yangi ekstralingvistik huquqiy atamalarning qonun chiqarish hamda huquqni qo'llash sohalariga izchil kirib borayotganligi huquqshunoslarimiz, xususan, tilshunoslarimiz oldiga qator dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Binobarin, bu kabi murakkab vazifalarni hal qilish ham huquqshunos va tilshunos olimlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari va ijodining mahsuli bo'lishi kerak. Zero, qonun nafaqat ma'lum huquqiy sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, balki qonunchilik tiliga qo'yiladigan talablar darajasida aniq va mukammal bo'lmog'i lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'razaev Sh.Z. Hokimiyat va qonun. – T., 1992
2. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi. Monografiya. – T., 1997
3. Shugrina Ye.S. Texnika yuridicheskogo pis'ma. – M., 2000
4. Vlasenko N.A. Yazik prava. – M., 2018